


ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ ВАЗИРЛИГИ  
ТОШКЕНТ ТИББИЁТ АКАДЕМИЯСИ

2022 №10

2011 йилдан чиқа бошлаган

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI  
**AXBOROTNOMASI**



**В Е С Т Н И К**  
ТАШКЕНТСКОЙ МЕДИЦИНСКОЙ АКАДЕМИИ

Тошкент

Нигматова Г.М., Хамраев Х.Х. НОВЫЕ ПОДХОДЫ В ДИАГНОСТИКЕ И ТАКТИКЕ ВЕДЕНИЯ ЖЕНЩИН С ПРЕЭКЛАМПСИЕЙ	Nigmatova G.M., Khamraev Kh.Kh. NEW APPROACHES IN THE DIAGNOSIS AND MANAGEMENT OF WOMEN WITH PREECLAMPSIA	149
Nuruzova Z.A., Mamatmusayeva F.Sh., Aliyev Sh.R. ME'DA SARATONI KELIB CHIQISHIGA SHUBHA QILINGAN BEMORLARDA HELICOBACTER PYLORI O'RNINI ANIQLASH	Nuruzova Z.A., Mamatmusayeva F.Sh., Aliyev Sh.R. DETECTION OF HELICOBACTER PYLORI IN PATIENTS WITH SUSPECTED GASTRIC CANCER	153
Рахимова М.Б., Ахмедов Х.С., Саидмуродова М.С. ОЦЕНКА КАРДИОВАСКУЛЯРНОГО РИСКА НА ФОНЕ ЭНДОТЕЛИАЛЬНОЙ ДИСФУНКЦИИ У БОЛЬНЫХ С АНКИЛОЗИРУЮЩИМ СПОНДИЛОАРТРИТОМ	Rakhimova M.B., Akhmedov Kh.S., Saidmurodova M.S. EVALUATION OF CARDIOVASCULAR PERIL ON ENDOTHELIAL DYSFUNCTION BASE IN PATIENTS WITH ANKYLOSING SPONDYLITIS	158
Тешаев О.Р., Мурадов А.С. МАТЕМАТИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ РАСЧЕТА РЕЗЕКЦИИ АНТРАЛЬНОЙ ЧАСТИ ЖЕЛУДКА ПРИ ПРОДОЛЬНОЙ РЕЗЕКЦИИ ЖЕЛУДКА	Teshaev O.R., Murodov A.S. MATHEMATICAL MODEL FOR CALCULATING THE RESECTION OF THE ANTRAL PART OF THE STOMACH WITH A LONGITUDINAL RESECTION OF THE STOMACH	164
Hakimov S.A., Bakhriyev I.I., Sultanov S.B., Gulyamov D.E. SUD TIBBIYOTI AMALIYOTIDA POSTASFIKTIK HOLATLARNI VAHOLASHNING ANAMIYATI	Khakimov S.A., Bakhriyev I.I., Sultanov S.B., Gulyamov D.E. VALUE OF ASSESSING POSTAFICTIC CIRCUMSTANCES IN JURISPRUDENCE	168
Шукурова У.П., Ходжиметов А.А., Мухамедова Н.Х., Бауетдинова Г.Д. СОДЕРЖАНИЕ РЕГУЛЯТОРНЫХ ПРОСКЛЕРОТИЧЕСКИХ МАРКЕРОВ НЕФРОСКЛЕРОЗЕ ПРИ ХРОНИЧЕСКОМ ПИЕЛОНЕФРИТЕ	Shukurova U.P., Khodzhimetov A.A., Mukhamedova N.Kh., Bauyetdinova G.D. THE CONTENT OF REGULATORY PROSCLEROTIC MARKERS OF NEPHROSCLEROSIS IN CHRONIC PYELONEPHRITIS	171
Юлдашева Д.Ю., Ирнazarова Д.Х., Мамадалиева У.П. ПАТОМОРФОЛОГИЯ МИОМЫ МАТКИ	Yuldasheva D.Y., Kayumova D.T., Irnazarova D.X.P. ATHOMORPHOLOGY OF UTERINE FIBROIDS	175

## ГИГИЕНА, САНИТАРИЯ И ЭПИДЕМИОЛОГИЯ

## HYGIENE, SANITATION AND EPIDEMIOLOGY

Абдукахарова М.Ф., Матназарова Г.С., Неъматова Н.У. ВНУТРИБОЛЬНИЧНЫЕ ИНФЕКЦИИ И ПОСЛЕОПЕРАЦИОННЫЕ ОСЛОЖНЕНИЯ В ХИРУРГИЧЕСКИХ ОТДЕЛЕНИЯХ	Abdukakharova M.F., Matnazarova G.S., Nematova N.U. HOSPITAL INFECTIONS AND POSTOPERATIVE COMPLICATIONS IN SURGICAL DEPARTMENTS	180
Yodgorova N.T., Nematov A.S., Mustanov A.N. O'TKIR ICHAK KASALLIKLARINING SURXONDARYO VILOYATI HUDUDLARI BO'YICHA UCHRASH DARAJASI	Yodgorova N.T., Nematov A.S., Mustanov A.N. LEVEL OF ACUTE INTESTINAL DISEASES IN THE REGIONS OF SURKHANDARYA REGION	184
Мадреимов А.М., Матназарова Г.С., Брянцева Е.В., Маденбаева Г.И. О НЕБЛАГОПРИЯТНЫХ САНИТАРНО-ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРАХ В РЕСПУБЛИКЕ КАРАКАЛПАКСТАН И ИХ ВЛИЯНИИ НА ЗАБОЛЕВАЕМОСТЬ ЗЛОКАЧЕСТВЕННЫМИ НОВООБРАЗОВАНИЯМИ	Madreimov A.M., Matnazarova G.S., Bryantseva E.V., Madenbaeva G.I. ON ADVERSE SANITARY AND ENVIRONMENTAL FACTORS IN THE REPUBLIC OF KARAKALPAKSTAN AND THEIR INFLUENCE ON THE INCIDENCE OF MALIGNANT NEOPLASMS	188
Неъматова Н.У., Матназарова Г.С., Абдукахарова М.Ф. ВИЧ-ИНФЕКЦИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	Nematova N.U., Matnazarova G.S., Abdukakharova M.F. HIV- INFECTIONS IN UZBEKISTAN	194

**SUD TIBBIYOTI AMALIYOTIDA POSTASFİKTIK HOLATLARNI BAHOLASHNING AHAMIYATI**

Hakimov S.A., Baxriyev I.I., Sultanov S.B., Gulyamov D.E.

**ЗНАЧЕНИЕ ОЦЕНКИ ПОСТАФИКТИЧЕСКИХ ОБСТОЯТЕЛЬСТВ В СУДЕБНОЙ ПРАКТИКЕ**

Хакимов С.А., Бахриев И.И., Султанов С.Б., Гулямов Д.Э.

**VALUE OF ASSESSING POSTAFİCTIC CIRCUMSTANCES IN JURISPRUDENCE**

Khakimov S.A., Bakhriyev I.I., Sultanov S.B., Gulyamov D.E.

Toshkent tibbiyot akademiyasi

**Цель:** Судебно-медицинская оценка постасфетических состояний. **Материал и методы:** Проведен анализ материалов судебно-медицинских экспертиз при постасфетических состояниях, проведенные в Андижанской области в 2017-2019 годах. **Результаты:** Постасфетические состояния возникали после попытки к самоубийству через повешение и чаще встречались у мужчин, особенно старшего возраста. Почти во всех случаях имели место нарушения функции ЦНС. У 55,1% потерпевших развивалась кома II и III степени и они были квалифицированы по признаку опасности для жизни. В 69,6% случаях наблюдалась амнезия, в 57,9% - тонические, тонико-клонические судороги. **Выводы:** Подчеркивается значение тщательного изучения обстоятельств происшествия, а также медицинских документов, содержащих полноценные, информативные данные.

**Ключевые слова:** постасфетическое состояние, судебно-медицинская экспертиза.

**Purpose:** Forensic assessment of postasphyctic conditions. **Material and methods:** The analysis of materials of forensic medical examinations in postasphyctic conditions, carried out in the Andijan region in 2017-2019, was carried out. **Results:** Postasphyctic conditions found that they all arose after attempted suicide by hanging and were more common in men, especially older ones. In almost all cases, there were dysfunctions of the central nervous system. 55.1% of the victims developed coma of the II and III degrees and they were qualified on the basis of danger to life. Amnesia was observed in 69.6% of cases, tonic, tonic-clonic convulsions in 57.9%. **Conclusions:** The importance of a thorough study of the circumstances of the incident, as well as medical documents containing full, informative data, is emphasized.

**Key words:** postasphyctic disorders, forensic medical examination.

**Muammoning dolzarbligi.** So'nggi o'n yilliklarda suitsid masalasi dunyoning barcha mamlakatlarida o'tkir muammo tusini olgan bo'lib, mazkur holatlar jamiyat salomatligi va ijtimoiy farovonlikning indikatorlaridan biri deb hisoblanadi. Ushbu murakkab ko'p jihatli masala turli sohadagi tadqiqotchilarning diqqat markazidadir [1, 2, 3, 4, 5].

Sud-tibbiy ekspertiza ob'ektlari qatorida o'z-o'zini o'ldirish va unga urinish holatlar o'ziga xos o'rin tutadi va bu nafaqat murda, balki tirik shaxslarning ekspertizlari bilan ham bog'liq. Ta'kidlash lozimki, bu holatlarining aksariyatida strangulyatsion asfiksiya, asosan o'zini osish hollari kuzatiladi. Sud tibbiyotiga oid maxsus adabiyotda tugallangan suitsid holatlarining turli jihatlarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar ancha ko'p. Ayni paytda tugallanmagan asfiksiya holatlarida sud-tibbiy ekspertiza masalalari e'tibordan biroz chetda qolgan [6, 7, 8]. Vaholanki, Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra parasuitsid holatlari o'lim bilan yakunlangan hollarga nisbatan yigirma martadan ko'p uchraydi. [9, 10, 11].

**Tadqiqotning maqsadi.** Sud-tibbiy ekspertiza materiallari bo'yicha postasfetik holatlarni kompleks tahlil qilishdan iboratdir.

**Tadqiqot materiali va usullari.** 2017-2019 yillarda Andijon viloyatida tugallanmagan asfiksiya holatlarida o'tkazilgan tirik shaxslarning sud-tibbiy eksper-

tiza xulosalari tekshiruv ob'ekti bo'lib xizmat qildi. Mazkur yillarda postasfetik holatlar yuzasidan jami 69 sud-tibbiy ekspertiza o'tkazilgan. Ularning barchasi osilish orqali o'zini o'ldirishga urinish bilan bog'liq bo'lgan. Har bir holat bo'yicha voqea tafsilotlari, tibbiy hujjatlar va anamnestic ma'lumotlar, tibbiy ko'rik natijalari sinchiklab o'rganildi. Kompleks tahlil uchun maxsus anketa yaratilib, unga barcha ma'lumotlar kiritildi. Bu borada jabrlanganlarning yoshi, jinsi, hodisa joyi, vaqti, aniqlangan jarohatlar, ularning og'irlik darajasi va qo'llanilgan mezonlardan tashqari osilish tipi, sirtmoq va uning tugunining bo'yinda joylashuvi, sirtmoq tayyorlangan material, sirtmoqning ta'sir davomiyligi, hushni yo'qotish davomiyligiga alohida e'tibor qaratildi. Qayd etilgan ma'lumotlar tegishli kod orqali raqamlashtirilib, maxsus yaratilgan kompyuter dasturi yordamida statistik ishlov berildi. Olingan natijalar jadval, grafik, diagrammalar kabi shakllarda keltirildi.

**Tadqiqot natijalari.** Tahlil yillarida tugallanmagan asfiksiya holatlari jami tirik shaxslar ekspertizasining 0,21%ini tashkil etgan. Kuzatuvlarda erkaklarning ulushi biroz kattaroq (56,5%) bo'lgan. Hodisalarning 72,5%i 19-49 yoshdagilarga to'g'ri kelgan. Ayni paytda bu holatlar eng ko'p 19-29 yoshlilar guruhida (31,9%) aniqlangan. Turli jins vakillari yosh guruhlari kesimida o'rganilganda erkaklarda katta yosh guruhlari vakillari

nisbatan ko'proq bo'lgan.

Voqea tafsilotlariga binoan aksariyat holatlarda tipik, ya'ni erkin osilish bo'lgan. 60,9% holda sirtmoq yarim qattiq, 33,3% - yumshoq materialdan tayyorlangan. Jabrlanganlar asosan tugunli, sirpanuvchan sirtmoqdan foydalangan va sirtmoqning tuguni tipik joylashgan. Tibbiy hujjatlar va sud-tibbiy ko'rik ma'lumotlari bo'yicha 92,7% holatda jabrlanganlarda strangulyatsion egat aniqlangan bo'lib, 79,7% holda egat buyinning yuqori, 14,5% holda - o'rta uchligida joylashgan.

Sud-tibbiy ekspertiza materiallari bo'yicha 66 (91,3%) xolatda tibbiy yordamga murojaat qilingan, ularning 87%i statsionar sharoitida davolangan. Tibbiy hujjat ma'lumotlari ko'ra 31 (44,9%) holatda tonik va 9 (13,0%) tonik-klonik talvasalar kuzatilgan. Jabrlanganlarning uchdan ikki qismidan ko'pida (69,6%) asosan retrograd tusga ega amneziya holati aniqlangan.

Amaldagi tan jarohatlarining og'irlik darajasini sud-tibbiy baholash qoidalari talablaridan kelib chiqqan holda tugallanmagan asfiksiya holatlarida og'irlik darajasini baholashda turli mezonlar qo'llanilishi mumkin [6]. Faqat hayot uchun tahdid vujudga keladigan hollardagina hayoti uchun xavf alomatidan foydalanish mumkin. Qolgan holatlarda esa sog'liqning buzilish davomiyligi yoki umumiy mehnat qobiliyatini turg'un yo'qotish darajasi qo'llaniladi.

Odatda postasfiktik holatlarda hayot uchun xavf alomati asosan bosh miya faoliyatining buzilishi, aniqrog'i chuqur yoki terminal koma rivojlanishi bilan bog'liq bo'ladi. Jabrlanganlarning deyarli barchasida ushbu faoliyatning turli darajadagi buzilishlari aniqlandi.

Tahlil natijalari bo'yicha 38 (55,1%) jabrlanganlarda II va III darajali koma rivojlangan va shunga asosan hayot uchun xavf belgisiga ko'ra tan jarohatlari og'ir deb baholangan. 24 (34,8%) holatda tan jarohatlari sog'liqning buzilishi davomiyligi mezoni bo'yicha baholangan. Shu bilan birga, 7 (10,1%) holatda tibbiy hujjatlarda to'liq ma'lumotlarning yo'qligi sababli tan jarohatlarining og'irlik darajasi aniqlana olmagan.

**Tadqiqot natijalarining muhokamasi.** Viloyatda 2017-2019 yillarda postasfiktik holatlar yuzasidan o'tkazilgan sud-tibbiy ekspertiza materiallari tahlilida mazkur ekspertizalarning yakunlangan suitsid hollariga nisbatan ham absolyut, ham nisbiy ko'rsatikichlari ancha pastligi aniqlandi. Chunonchi, tahlil yillarida ushbu ekspertizalar jami tirik shaxslar ekspertizalarining 0,18%-0,37%ini tashkil etgan. Haqiqatda, amalda parasuitsid holatlari ancha ko'proq kuzatilsa-da, turli sabablarga ko'ra sud-tibbiy ekspertiza bilan qamrov darajasi ancha pastdir. Postasfiktik holatlar erkaklarda, ayniqsa katta yoshdagilarda nisbatan ko'proq bo'lgan.

Hodisa tafsilotlariga ko'ra barcha holatlar osish orqali o'zini o'ldirishga urinish bilan bog'liq bo'lib, ko'pincha yarim qattiq, yumshoq materiallardan tayyorlangan tugunli, sirpanuvchan sirtmoqda tipik osilish kuzatilgan. Aksariyat holatlarda sirtmoq tuguni tipik joylashgan. Shularga mos tarzda jabrlanuvchilarning bo'ynida strangulyatsion egat aniqlangan.

Tan jarohatlarining og'irlik darajasini aniqlashda ekspertizalar tamonidan ikki mezondan foydalanilgan.

55,1% holatda jabrlanganlarda II va III darajali koma rivojlangan va hayot uchun xavf mezoni bo'yicha og'ir tan jarohatlari aniqlangan. Qolgan holatlarda sog'liqning buzilishi davomiyligi mezoni qo'llanilgan.

Ushbu holatlarda mavjud tan jarohatlarini sud-tibbiy baholashda to'liq ma'lumotlarni saqlagan tibbiy hujjatlarining ahamiyati katta. Afsuski, bu borada qator kamchiliklarga yo'l qo'yiladi. Xususan, ayrim hollarda tibbiy hujjatlar noto'liq, noinformativ, klinik o'zgarishlar dinamikasi aks ettirilmagan bo'ladi. Ayni shu sabablarga ko'ra tahlil davrida 7 (10,1%) ekspertizada tan jarohatlarining og'irlik darajasi aniqlana olmagan.

#### XULOSA

1. Postasfiktik holatlar bo'yicha sud-tibbiy ekspertizalarda tibbiy hujjatlar va ekspert ko'rigi ma'lumotlaridan tashqari, voqea tafsilotlari hamda anamnestic ma'lumotlar sinchiklab o'rganilishi lozim.

2. Mazkur sud-tibbiy ekspertizalarning spetsifikatsionidan kelib chiqqan holda tan jarohatlarini sud-tibbiy baholashda tibbiy hujjatlardagi ma'lumotlarning to'laqon, informativ bo'lishi muhimdir.

3. Tan jarohatlarining og'irlik darajasini aniqlashda jabrlanganlarda II va III darajali koma rivojlangan holdagina hayot uchun xavf, qolgan holatlarda esa sog'liqning buzilishi davomiyligi mezonlari qo'llaniladi.

#### Adabiyotlar:

1. Гусева М.В. Эпидемиологический анализ и медико-психологические особенности самоубийств населения мегаполиса (на примере Москвы) // Автореферат ... канд. дисс., М., 2005, 23 с.

2. Молин Ю.А. Судебно-медицинская экспертиза повешения. // Монография. СПб., АНО ЛА «Профессионал», 2011, 320 с.

3. Armstrong M. Jr., Strack G.B. Recognition and documentation of strangulation crimes: A review. // JAMA Otolaryngol. Head Neck Surg. 2016, 142(9), p. 891-897.

4. De Boos J. – Review article: Non-fatal strangulation: hidden injuries, hidden risks. // Emerg. Med. Australas. 2019, Jun., 31(3), p.302-308

5. Pritchard A.J., Reckdenwald A., Nordham C. Non-fatal strangulation as a part of domestic violence: a review of research. // Trauma Violence Abuse, 2017, 18(4), p.407-424.

6. Hawley D.A., Mc Clane G.E., Strack G.B. A review of 300 attempted strangulation cases. Part III: injuries in fatal cases // J. Emerg. Med., 2001, 21(3), 317-322.

7. Богомолов Д.В., Баранова М.Я., Семенов Г.Г. Особенности танатогенеза при обтурационной асфиксии. // Суд.-мед. экспертиза. 2006 №3 с. 30-31.

8. Ваулин С.В., Алексеева М.В., Моренец Т.В. Госпитальные суицидальные попытки и самоубийства в психиатрическом стационаре, во время лечебного отпуска и в ранние сроки после выписки // Вестник Смоленской государственной медицинской академии, 2017, т.16, № 1, с.94-99.

9. Витер В.И., Вавилов А.Ю., Кунгурова В.В. и др. Механическая асфиксия: судебно-медицинская диагностика и оценка. Ижевск, 2016, 86 с.

10. Гиясов З.А., Махсумхонов Қ.А. Тан жароҳатла-

рининг оғирлик даражасини суд-тиббий аниқлаш қоидаларига шарҳлар. Тошкент, 2020, 102 б.

11. Саркисян Б.А., Колесников А.О. Судебно-медицинская оценка степени тяжести вреда здоровью постстрангуляционных состояний. Барнаул, 2014, 24 с.

#### **SUD TIBBIYOTI AMALIYOTIDA POSTASFIKTIK HOLATLARNI BAHOLASHNING AHAMIYATI**

Hakimov S.A., Baxriyev I.I., Sultanov S.B., Gulyamov D.E.

**Tadqiqot maqsadi:** Postasfiktik holatlarni sud-tibbiy baholash. **Tadqiqot materiali va usullari:** Andijon viloyatida 2017-2019 yillarda postasfiktik holatlar yuza-

sidan o'tkazilgan sud-tibbiy ekspertizalar materiallari tahlil qilingan. **Olingan natijalar:** Postasfiktik holatlarda osish orqali o'zini o'ldirishga urinishdan so'ng vujudga kelgan, ko'proq erkaklarda, ayniqsa katta yoshdagilarda kuzatilgan. Deyarli barcha holatlarda MNT faoliyatining buzilishi aniqlangan. 55,1% jabrlanganlarda II va III darajali koma rivojlangan va bu holatlar hayot uchun xavf mezoni bo'yicha baholangan. 69,6% holda amneziya, 57,9% - tonik, tonik-klonik talvasalar kuzatilgan. **Xulosa:** Postasfiktik holatlarning sud-tibbiy ekspertizalarini o'tkazishda voqea tafsilotlarini atroflicha o'rganish hamda to'laqon, informativ ma'lumotlar bo'lgan tibbiy hujjatlarning ahamiyati ta'kidlangan.

**Kalit so'zlar:** postasfiktik holat, sud-tibbiy ekspertiza.

